

O'ZBEK ROMANCHILIGINING YUZAGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

Rajabova Gulhayo Ozod qizi
GulDU 2- bosqich magistranti

Yangi o'zbek adabiyoti shartli ravshda XIX asrning oltmishinchi yillaridan boshlangan "Milliy uyg'onish davri" adabiyotidan to bugungi kunimizgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shartli deyishimizning sababi esa "Milliy uyg'onish davri"ni yangi o'zbek adabiyotiga kiritish yoki kiritmaslik haqida olimlarning fikri turlichadir ba'zilar bu davrni mumtoz adabiyotni davomi deyishsa, boshqa guruh olimlar bu davr adabiyotini Milliy uyg'onish davrini ikki bosqichga ajratishadi. Birinchi bosqich XIX asrning 60-yillaridan XX asrning ilk boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi Ma'rifatchilik adabiyoti. Bu davrda Avaz O'tar, Dilshodi Barno, Zavqiy, Muqumiy Komil Xorazmiy kabi ijodkorlar ijod qildilar. Ular mumtoz adabiyotdan farqli o'laroq badiiy adabiyotga ijtimoiy vazifa yukladilar, badiiy adabiyot endi omma fikrini uyg'otishi, to'g'ri va yangilishlarni ko'rsata bilishi ham zarur edi.

Milliy uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan jadid davri adabiyoti XX asrning boshlaridan 30- yillarigacha (30- yillarni ham) bo'lgan bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Agar ma'rifatchilar faqat badiiy adabiyotning ma'no mazmuniga yangilik kiritgan bo'lsalar, jadidlar bu o'zgarishlarni saqlab qolgan holda o'z go'yalarini ommaga qulayroq yetkaza olishi imkoniyatiga ega bo'lgan, jimjimadorlikdan holi, xalq so'zlashuv tiliga yaqin bo'lgan yangi obrazlar, uslub va janrlarni olib kirdilar. Ana shunday janrlardan biri roman edi

Roman(*fran.* dastlab rumoviy (roman) tillarida yozilgan asar) yangi davr adabiyotidagi katta hajmli epik asar¹. Hozrgi davrda roman istilohini "epik turning bir janri" ma'nosida qo'lash to'riroqdir.

O'zbek adabiyotida roman janriga mansub asarlar XX asrning boshlarida yozila boshladi. Adabiyotshunos M.Solihov o'z maqolasida roman janrining adabiyotimizga kirib kelishi haqida fikr bildirib shunday deydi-"Asriy adabiyotg'a yangidan kira boshlag'on xalqlar adabiyotning ro'mon qismimni tarjima bilan ochqonlar. Ya'ni qayu bir xalqning adabiyotida yaxshi ro'mon bo'lsa, uni tarjima bilan xalqni va yozuvchilarni u yo'lg'a o'rgata borg'onlar. So'ngra-so'ngra unday ro'monlarning taqlidini o'z hayotlariga uydinib chiqora borg'onlar"². Garchi bu qarash o'zbek adabiyotida o'rinli bo'lmasada (o'zbek adabiyotida ilk romanlar



yaratilguniga qadar birorta tarjima roman bo'lmagan, tarjima sohasi asrning keyingi yillarida rivojlangan) rus adabiyotida Yevropa adabiyotidan tarjima va taqlidlar orqali roman janri kirib kelganligi va rus adabiyoti faqat taqlid bilangina cheklanib qolmay roman janrini yuksak darajada o'zlashtirib, bu janrda nodir asarlar yaratganligi haqiqatdir. O'zbek adiblari roman bilan asosan rus adabiyoti va u orqali yevropa adabiyoti bilan tanishishganlar. O'zbek adabiyotining birinchi romani hisoblanuvchi A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan oldin H.H.Niyoziyning 1915 yilda "Yangi saodat yoxud milliy ro'mon", Mirmuhsinning "Farzandsiz Ochildiboy" kabi asarlarini mualliflarning o'zlari roman deb nomlaydilar. Ammo bu asarlarni adabiyotshunoslar "janr talablariga javob bermaydi" deb o'sha davrlardayoq baho berganlar. Milliy uyg'onish davri tanqidchilaridan bo'lgan M. Solihov "Mehrobdan chayon" yolg'uz Julqunboyning ikkinchi asari emas, balki o'zbek yangi adabiyoti uchun ham ikkinchi ro'mon edi. Hamza Hakimzodaning "Milliy ro'mon" nomli kichik bir asari bo'lsada, unga bu kungi ro'monchilik sharoitida ro'mon demak to'g'ri bo'lmasdi"³ deya fikr bildirib shu maqolasida romanni yuzaga chiqaruvchi bir qancha shartlarni sanab o'tadi. Albatta bu shartlar bugungi kunga kelib o'z qiymatga ega emasdir. Yuqorida tilga olingan asarlarni keyingi davr olimlaridan bir guruhi "roman yaratish yo'lidagi urinishlar" deya baholaydilar.

Shu tariqa jadidlar o'zbek romanchiligini boshlab berdilar. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan so'ng "Mehrobdan chayon", tugallanmay qolgan "Obid ketmon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanlari shular jumlasidandir. Xo'sh bu romanlar qanday belgilarga ega edi? Jadid adiblari asrlar davomida shakllangan mumtoz adabiyot chuqur sug'orilgan edi va bu tafakkur romanlar o'z ifodasi ko'rsatdi. Xususan bu yaqinlik obrazlarning qurilishida ananaviy oshiq-mashuqaraqib (Otabek-Kumush-Homid, Anvar-Ra'no-Musulmonqul) uchligidan foydalanilgan Obrazlar portretini chizishda mumtoz ananalardan foydalanilgan (Kumush

Ra'no, Zebi) bu ayniqsa Kumush obrazini tasvirlashda yaqqol ko'zga tashlanadi ham, xastalanib qolganda ham bularning hech kumush har qanday

³M.Solihov "Mehrobdan chayon": mavzui, sinfiy tusi va tuzilishijihatidan tekshirilmishdir. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 2008-y. 16-17-sonlar

holatda go'zal yig'lab ham qovoqlari shishib ketganda biri uning ketganda ham, xastalanib qolganda ham bularning hech biri uning go'zlligiga soya sololmaydi.



Romanlarda ijobiy qahramonlar to'raligicha ijobiy (Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor Qurbonoy, Zebi) salbiy qahramonlar to'raligicha salbiy (Homid, qora kampir, Abdurahmon, Shahodat muftiy) jonlantiriladi. Qahramonlar xarakteri, ruhiyatida evrilishlar uchramaydi, bu xususiyatni oldingi mumtoz adabiyot namunalarida deyarli, keyingi sho'ro davri romanlarida juda kam kuzatamiz ammo asar qahramonlarida ham insonlardek ruhiyatlarida o'zgarishlar bo'lishi, ular nimadandir taasirlanishi va o'zgarishi mumkinligi, inson har doim evrilishda bo'lishini ilk bor Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida uchramamiz. Adabiyotshunos D.Quronov bu asar haqida "Romanchiligimizning ilk cho'qqisi – "O'tkan kunlar"dan farq qilaraq, "Kecha"da voqealar silsilasi emas, inson xarakteri, uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlar markaziy o'rin tutadi. Cho'lponning romanchiligimiz taraqqiyotiga qo'shgan eng muhim yangiliklaridan biri ham shundadir."⁴ Bu romanlarda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy muammolar ularning kelib chiqish sabablari, yechimlari, ko'rsatilgan edi.

1917- yilgi oktabr inqilobidan so'ng hokimyat tepasiga kelgan sovetlat daslabki yillarda badiiy ijodga aralashmadilar va jadidlar o'z maqsadlari yo'lida qiyinchilik bilan bo'lsada davom etdilar. 30- yillardan boshlab o'z hokimyatini mustahkamlab olgan sovetlar badiiy adabiyotni sovet mafkurasini ommaga yoyish quroli- mafkuraning yugurdagi qilib oldilar. O'z fikri, duyoqarashiga ega tuzumga keragiday xizmat qilmagan adiblar xalq dushmani sifatida qatl qilindi. Shu tariqa 30-50 yillarda Stalin qatag'on komissiyasi samarali ishlab turdi. Ammo bu davrda ham badiiyati yuksak asarlar yaratildi. Biz ulardan faqatgina roman janriga tegishlilarinigina sanab o'tamiz- Oybekning "Qutlug' qon", "Navoiy", A.Qahorning "Sarob" romanlari shular jumlasidandir. 60-80 yillar qisman ijodga erkinlik berildi, bu davrda Shuhratning "Oltin zanglamas", "Shinelli yillar", "Oltin zanglamas" Asqad Muxorning "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor", "Amu", Mirmuhsinning "Me'mor", "Degrez o'g'li", "Umid", "Temur Malik", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", "Kohna duyo", "Diyonat", Mirzakalon Ismoilning "Farg'ona tong otguncha" dilogiyasi, Shukur Xolmirzayevning "So'ngi bekat", "Qil ko'prik", "Yo'lovchi"

Sho'ro davri adabiyotini shartli ravshda uch davrga bo'lib o'rganamiz:

Birinchi davr 1917-1930 yillar

Ikkinchi davr 1930-50- yillar



Uhinchi davr 1950-80- yillar yuqoridaa bu davrlarda yaratilgan romanlarni sanab o'tdik. Sho'ro davri romanchiligining belgilari quyidagilardan iborat edi: romanlarning mavzu ko'lami kengaydi, XX asrda insoniyat boshidan o'tkazgan eng katta fojia albatta ikki jahon urushi edi. Qanchadan qancha bolalarni otasidan, otalarni bolasidan, oilalarni boshpanasidan ayirgan bu urush talofatlari tabiiyki ijodkorlarni befarq qoldirmadi. Bu davrda ko'plab urush mavzusdagi romanlar yaratildi. "Shinelli yillar", "Quyosh qoraymas", "Ufq", "Ikki eshik orasi", "Amu" kabi asarlarda urush mavzusi birlamch edi. Bu asarlarda talofat faqatgina janggohlarda emas, urushdan minglab chaqirim yiroqda ham uning sovuq nafasi o'z hukmni o'tkazgani, o'nqlab bo'lmas talofatlar yetkazgani, bu talofatlar urush tugaganidan keyin ham uzoq yillar insonlar hayotiga ko'lanka solib turganini badiiy ifodalab berdilar.

Bu davrda yana, tarixiy mavzuda bir qancha romanlar yozildi. Garchi Stalin vafotidan keyin badiiy ijodga anchayin erkinlik berilgan bo'lsada, hali hamon mafkura yetovidan qutulolmagan, kommunistik g'oyalarni singdirishga xizmat qiluvchi vosita edi. Shu sababdan ko'plab ijodkorlar tarixiy mavzuda romanlar yozishdi. "Navoiy", "Turon malikasi" "Yuduzli tunlar", "Avlodlar davoni", "Farg'ona tong otguncha", "Ko'hna dunyo", "Qilko'prik" romanlari shular jumlasidandir.

Sho'ro davri adabiyoti to'laligicha omma adabiyoti edi, bu davrda kitobxon yozuvchining intellektual darajasiga chiqishi emas, aksincha ijodkor o'qirman darajasida yozishi zarur edi. Yozilayotgan romanlarning aksariyati cho'lni o'zlashtirish, kolxozlashtirish, paxta siyosati haqida edi. Siyosat talabi bilan buyurtma uchun yozilgan romanlar vujudga keldi. Oybekning "Oltin vodiyan shabadalar", "Ulug' yo'l", H.G'ulomning "senga intilaman", "Binafsha atri", "Qoradaryo", A.Qahorning "Qo'shchinor chiroqlari" va boshqa ko'plab shunday asarlar yozildi.

Albatta yuqoridagi mavzularni tilga olgan badiiyati yuksak, fikriy topilmalarga boy, jahon romanchligiga hissa qo'shadigan "Yulduzli tunlar", "Ikki eshik orasi", "Chinor" "Qutlug' qon", "Navoiy" kabi bir qancha romanlar ham yaratildi.

Mustaqillik davri romanchiligi. Vatanimiz 1991 mustaqillikka erishgandan so'ng badiiy ijod butunlay mafkuradan holi, inson tafakurining ijodiy mahsuli bo'lib yuzaga keldi. Professor Q. Yoldoshev o'zbek millati tafakkurini haqida



“O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixini Quroni Karim tarjima qilunguncha va tarjima qilingandan keyingi davrlarga ajratish mumkin. Negaki, bu muqaddas kitobning o‘zbekchalashtirilishi, millatning e‘tiqodi, duyoqarashi va ma‘naviyatida o‘ziga xos inqilob yasadi”⁵. Mustaqillik davri romanlarining bosh mavzusi – inson bo‘ldi. Tabiat gultoji sanalmish odam ruhiyatidagi xilma-xillikni, injaliklarni izohlashga imkon yaratdi. Bu davr romanchligida ijodi tarjibalar qilish, badiiy ifodaning yangi, avval uchramagan tamoyillaridan foydalanish, o‘zgacha tasvir vositalarini qo‘llash yetakchilik qildi. Omon Muxtorning “Ffu”, ‘Ayollar mamlakati va saltanati”, “Aflotun” , “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi, “Muhabbat o‘limdan kuchli romanlarining har biri bir–birini takrorlamagan yangicha ifoda usullarida, olam va odam hodisalarini sharqona ijohlab berdi. Omon Muxtor romanlarida qadim sharq ertaklaridagi mistik hodisalarni, sof diniy tushunchalarni romanlariga olib kirdi.

O‘zbek romanlarida “romaniy muammo(problema)”ni, romanga xos tafakkurni saqlab qolgan holda hajman qisqarishlar ro‘y berdi U.Hamdamning “Namatak” mini romani, . O. Muxtorning “Maydon” roman hangomasi shular jumlasidandir. Adibning “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi to‘rt yuz ellik bet ham chiqmaydi. Bundan tashqari Sh. Xolmirzayevning “Olabo‘ji”, “Dinozavr” , Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, “Bu dunyoda o‘ib bo‘lmaydi”, M.M.Do‘stning “Lolazor”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, U.Hamdamning “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, E. A`zamning “Shovqin”, A. A`zmning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”, L. Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, A. Nurmonovning “Qon hidi”, Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma”, A. Malikning “Halqa” kabi romanlarida yozuvchilar qahramonlar hatti harakatini ko‘rsatib berishga emas, ularning hislarini, kechinmalarini tasvirlashga, obrazlar inson qiyin vaziyatga tushganda yo‘l korsatadigan namuna emas, yetuklik va kamchiliklarga ega, ezgulik va yovuzlik bitta vujudda jamlangan bo‘lgan tirik odam sifatida tasvirladilar.

Adabiyotlar

¹Н.Хатамов. Б.Саримсаков Адабиётшунослик теръинларининг русча-узбекча изохли лугати. Т.-«УКИТУВЧИ»-1978.-С257

Q.Yo‘ldosh. Yoniq so‘z. Т.“Yangi asr avlodi”-2006. –b192

⁴Д.Куроноф Чулпон насри поетикаси. –Т.-«ШАРК»-2004. Б157

